

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.Abdullayeva	
XX asrning 20-yillarida Buxoro me'moriy obidalarining ta'miroti masalasi	324
F.Temirov	
Sadriddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari.....	328
I.Naimov	
Ahmad Donish ilmiy merosida islom huquqi masalalari.....	333
R.Rahimov	
Yevropa noshirlik uylari vujudga kelish tarixiga nazar	337
D.A.Choriyeva	
Madaniyat sohasida oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar muammosi va yechimlar.....	342
O.V.Mahmudov	
O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimida Ispaniya shaharlarining o'rni: Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviya	353
A.A.Hakimov, B.A.Usmanov	
Amir Abdulloning Xorazm yurishi	360
N.X.Choriev	
Buxoro Amirligining janubiy hududlarida irrigatsiya tarmoqlarining rivojlanishi	365

ADABIYOTSHUNOSLIK

I.Yakubov	
"Modern" o'zbek romanlarida majoziy va xayoliy-parodoksal ifoda	368
P.Bakirov	
Turli tizimli tillarda nominatsentrik maqollar mazmun plani	373
I.Mannopov	
Yassaviylik adabiyoti tahlili masalasi	379
Q.Yo'ldiyev	
Anvar Obidjon lirikasida semiotik xususiyatlar	383
J.Eshonqulov	
Hayrat Buxoriy ijodida ijtimoiy hayot va muhit tanqidining badiiy xususiyati	388
T.Matyoqubova	
Tuyg'u va kechinmani kitobxonga "yuqtirish" mahorati.....	394
M.Qurbonaliyeva	
Taqiuddin Muhammad Avhadiy "Arafot-ul-oshiqin" va Mutribiy Samarqandiy "Tazkirat-ush-shuaro" asarlarning qiyosiy tahlili	399
I.Eshonqulov	
Tazkiranavislar nuqtayi nazaridan Mirsiddiqxon Hashmatbuxoriy o'rnini anglash	405
H.Ne'matova	
Hoji Muinning "Kattaqo'rqon xotiralari" safarnomasi	413
X.A.Xaitov	
O'zbek adabiyotida lingvistika asosida kulgi uyg'otish masalasi	417
Samadi Nooria	
Maqollarning metodik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari	421
A.G.Sabirdinov	
Shuhrat she'rlariga bir nazar	427
S.Muminov, Z.Kamoliddinova	
Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida qo'llangan sinonimlarining lingvopoetikasiga doir.....	433

TILSHUNOSLIK

Sh.Iskandarova, D.Qo'ldasheva	
Furqat g'azallarida jonlantirishlarning ifodalanishi	439
Sh.A.Ganiyeva	
Frazeologik ma'no: kategorial va grammatik ma'no muammolari	443
D.Yuldasheva, S.Nishonova	
Maqollarda "bola" kontseptining ifodalanishi.....	447
M.Saminjonov	
Tilshunoslikda nutqiy janrlar va soha qasamlari masalasi.....	450
O.Latipov	
Rus, o'zbek, tojik va ingliz <i>tillarida "dog/it/sag"</i> zoonim so'zining konseptual talqini	454

AMIR ABDULLONING XORAZM YURISHI

ХОРАЗМСКИЙ ПОХОД АМИРА АБДУЛЛО

AMIR ABDULLO'S MARCH OF KHORAZM

Hakimov Adhambek Ahmadjon o'g'li¹, Usmanov Bahridin Ahmedovich²¹Hakimov Adhambek Ahmadjon o'g'li

– Farg'ona davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi.

²Usmanov Bahridin Ahmedovich

– Farg'ona davlat universiteti, tarix fanlari doktori, dotsent.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Movarounnahr hukmdori amir Qazag'anning katta o'g'li va valiahdi amir Abdulloning Xorazmga qilgan yurishi tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tadqiq etilgan. Amir Abdulloning davlatchilik borasidagi qarashlari, shundan kelib chiqib amalga oshirgan ishlari markaziy hokimiyatni mustahkamlash hamda uni nufuzini oshirish yo'lida olib borilgan chora tadbirlar ekanligi va amir Qazag'an tomonidan olib borilgan siyosatga mos kelganligi tahlil natijalari sifatida yoritib berilgan.

Аннотация

В данной статье на основе исторических источников и научной литературы исследуется поход Амира Абдуллы, старшего сына и наследного принца правителя Мовароуннахра Амира Казагана, в Хорезм. В качестве результатов анализа были выделены взгляды Амира Абдуллы на государственность, основанные на этом меры по укреплению центральной власти и увеличению ее влияния, а также то, что они соответствовали политике Амира Казагана.

Abstract

In this article, the campaign of Amir Abdullah, the eldest son and crown prince of the ruler of Movarounnahr, Amir Kazaghan, to Khorezm is researched on the basis of historical sources and scientific literature. Amir Abdullah's views on statehood, based on this, the measures taken to strengthen the central authority and increase its influence, and the fact that they corresponded to the policy of Amir Kazaghan, were highlighted as the results of the analysis.

Kalit so'zlar: Amir Qazag'an, amir Abdullo, Xoja Ixtiyoriddin Hasan Sovarj, Qutlug' Temur, Husayn So'fi, Chig'atoy ulusi, Movarounnahr, Xuroson, Xorazm, Hirot, harbiy yurish, na'lbaho, taqa puli.

Ключевые слова: Амир Казаган, Амир Абдулла, Ходжа Икhtiериддин Хасан Совардж, Кутлуг Темур, Хусейн Софи, Чигатай Улуси, Мовароуннахр, Хорасан, Хорезм, Герат, военный поход, налбахо, подковообразные деньги

Key words: Amir Qazaghan, Amir Abdullah, Khoja Ikhtiyoriddin Hasan Sovarj, Qutlug Temur, Husayn Sofi, Chigatay Ulusi, Movarounnahr, Khorasan, Khorezm, Herat, military campaign, nalbaho, horseshoe money.

KIRISH

XIV asrning o'rtalariga kelib Movarounnahrda siyosiy keskinlik kuchayib bordi. Bu Chig'atoy ulusida siyosiy parokandalikning chuqurlashuvi va uning zamirida yangi siyosiy kuchlarning shakllanishi bilan birga kechayotgan jarayon edi. Shakllanayotgan yangi siyosiy kuchlarning o'zaro birlashuvi mahalliy siyosiy birliklarning tarkib topishiga olib keldi. Bu siyosiy birliklar Movarounnahrning tarixiy geografik hududlari bo'yicha shakllandi va rivoj topib bordi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Amir Abdulloning Xorazm yurishi tarixshunosligimizda deyarli o'rganilmagan. Ushbu davr tarixiga oid ko'pgina asarlarida mazkur yurish haqida umuman so'z yuritilmagan yoki qisqa qaydlar bilan cheklanilgan. "Amir Temur jahon tarixida", "Temur va Ulug'bek davri tarixi", "Istoriya Uzbekistana (period Amirra Temura i temuridov)" kabi fundamental asarlar hamda bir qator ilmiy tadqiqotlar shular jumlasidandir [1; 2; 3; 4; 5; 6; 7; 8; 9; 11; 13; 16]. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, amir Abdulloning Xorazm yurishi haqida tarixiy manbalarda ma'lumotlar ham ko'p emas [10; 12; 14; 15]. Tadqiqot obyekti haqida mavjud ma'lumotlarning kamligi ularni manbashunoslik nuqtai nazaridan jiddiy tahlil etishni, boshqa tarixiy voqealar bilan qiyosiy o'rganishni va shu asosda ilmiy xulosalar berishni talab qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Movarounnahrda mahalliy siyosiy kuchlarning yetakchisi sifatida ko'zga tashlangan Amir Qazag'an 1347-yili Chig'atoy ulusining Movarounnahrda so'nggi xoni Qozonxonni tor-mor keltirib,

TARIX

hokimiyatni qo'lga kiritdi [15:15]. Shuni ta'kidlash o'rinliki, Qozonxon chindan ham Chig'atoy ulusining Movarounnahrda amaldagi so'nggi xoni edi. Undan keyin taxtga chiqarilgan xonlar esa "qo'g'irchoq" hukmdorlar bo'lib, ular nomidan hokimiyat mahalliy amirlar tomonidan boshqarildi. Amir Qazag'anning hokimiyatni qo'lga kiritishi bilan Chig'atoy ulusining bir qismi bo'lmish Movarounnahrda mustaqil davlatchilik paydo bo'lishi uchun asos yaratildi. Amir Qazag'anning o'ta qattiqo'llik bilan davlatni boshqarishi bahonasida undan norozilik ham kuchayib bordi. Norozilik kuchlarining yetakchilari tobora kuchayib borayotgan mahalliy qabilalarning yetakchilari edi. 1358-yili Amir Qazag'an fitna oqibatida oyrat qabilasining vakili bo'lgan kuyovi Temur Qutlug' tomonidan o'ldirildi [15:15]. Bu Movarounnahrda hokimiyat uchun kurashlarning yangi to'lqini boshlanganligidan dalolat edi.

Amirlar maslahati bilan mamlakat boshqaruvi Qazag'anning o'g'li Abdulloh qo'lga o'tdi. Amir Abdulloh qabilalarning yetakchilari o'rtasida tobora kuchayib borayotgan o'zaro kurashning yangi pallaga kirib borayotganligini anglagan holda, hokimiyatni o'z qo'lida to'liq markazlashtirishga harakat qildi.

Avvalo Amir Abdullohning otasi hukmronligi davridagi faoliyatiga ham e'tibor qaratish lozim. Uning davlatchilik va siyosiy-harbiy masalalardagi qarashlari aynan shu davrda shakllangan edi. Manbalarda Amir Abdullohning bu davrdagi faoliyati xususida ma'lumotlar juda kam. Sharofuddin Ali Yazdiy o'zining "Zafarnoma" asarida uning otasi davrida Xorazmga yurish qilganligi qisqa satrda qayd etilgan [15:18]. Nizomiddin Shomiy ham Amir Abdulloh faoliyatiga ko'p e'tibor qaratmagan va faqat taxt egasi sifatida amalga oshirgan ishlarini qayd etib o'tish bilan cheklangan [12: 27-28].

Amir Temur tarixini yozgan mualliflar orasida Muiniddin Natanziy amir Abdulla faoliyatini kengroq yoritganligi bilan ham ajralib turadi. Uning fikricha, amir Qazag'an farzandlari orasida amir Abdullohga katta e'tibor qaratgan va davlat ishlarida unga ko'proq tayangan. Harbiy safarlar vaqtida esa uni o'z o'rniga qoim maqom etib tayinlagan. "O'z davri o'rtalarida, — deb yozadi Natanziy, — amir Qazag'on qaysidir bir tarafga yurish qilib, to'ng'ich va valiahd o'g'li amirzoda Abdullohni o'zining qo'yim maqomi sifatida o'rdada qoldirgandi" [10:49]. Bu ma'lumotdan ko'rinadiki, amir Abdulloh Qazag'anning katta o'g'li va hokimiyatdaligidayoq e'lon qilgan valiahdi edi. Valiahd sifatida shahzoda arkoni davlat oldida katta obro' va nufuzga ega bo'lgani shubhasiz. Uning otasi davrida Samarqand shahrini boshqarganligi ham shundan dalolat beradi. Amir Qazag'anning hokimiyatini kuchsizlantirishga uringan siyosiy kuchlar o'z manfaatlari yo'lida obro'yi oshib borayotgan yosh amirzodani otasiga qarshi qo'yishga intilganlar. Manbalarda bu borada ba'zi yirik amirlar ma'lum bir muvaffaqiyatga erishganliklari haqida ma'lumotlar uchraydi. Natanziyning qayd etishicha, Amir Abdulloh "ochko'z amirlar ig'vosi" bilan ba'zi noto'g'ri harakatlarga yo'l qo'ygan [10: 49].

Amir Abdullohning Qazag'an hukmronligi davrida amalga oshirgan yirik siyosiy-harbiy tadbiri Xorazm yurishidir. Natanziy mazkur yurishning sanasi haqida noto'g'ri ma'lumot bergan. Uning qayd etishicha, Xorazm hukmdori Qutlug' Temur vafoti natijasida yuz bergan parokandalikdan foydalanib, amir Abdulloh harbiy yurish boshlashga qaror qilgan. "Amirzoda Abdulloh otasining buyrug'isiz ochko'z amirlar ig'vosi bilan Xorazmga lashkar tortdi va muzaffar lashkariga shahar tashqarisida (chodirlarning) arqonlarini (bir-biriga) tutashtirib, qarorgoh qurishni buyurdi. Bu voqea amir Qutlug' temur — Xudo uning dalilini munavvar qilsin — vafotidan so'ng yuz bergan edi. Qubbat ul-islom Xorazm hokimsiz qolgan, jamiki xosu om lashkar dahshatidan o'zini yo'qotgan bo'lib, uni qay tarzda va qay bir tadbir bilan daf etishni bilishmasdi" [10:49]. Fasih Xavofiyning "Mujmali fasihiy" asarida "Xorazmshoh Najmiddin Qutlug' Temurning vafoti" hijriy 736- (milodiy 1335-1336 yillar) yilda bo'lib o'tgan voqealar sirasida qayd etilgan [14:73]. Bizga ma'lumki, 1335-1336 yillarda Movarounnahr Chig'atoy ulusining xoni Qozonxon tasarrufida edi. Bu vaqtda amir Qazag'an o'zining mustaqil siyosiy va harbiy faoliyatini ham boshlamagan bo'lib, amir Abdullohning Natanziy qad etgan vaqtda Xorazmga yurish qilganligi mantiqan ham mumkin emas.

Lekin muarrixning yuqoridagi ma'lumotlar biz uchun muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, amir Abdullohning yurishi amalga oshirilgan vaqtda amir Qazag'an harbiy safarda bo'lgan. Uning ko'proq Xurosonga yurish qilganligini e'tiborga olish lozim. Chunki, Amir Qazag'an hokimiyatni egallagandan keyin ham o'zining merosiy mulklarini tark etmagan va asosan Surxon va Xatlon vohalarida yashagan. Qolaversa, manbalarda ham uning faqat Hirotga qilgan yurishlari haqida ma'lumot saqlanib qolgan [14:97-99; 15,15-18]. Amir Qazag'anning Hirot ustiga amalga oshirgan

yirik yurishi Fasih Xafofiy tomonidan hijriy 751-752 (melodiy 1350-1351, 1351-1352 yillar), Sharofuddin Ali Yazdiy tomonidan esa hijriy 752-yili bo'lib o'tganligi qayd etilgan.

Ikkinchidan, Amir Abdullohning mazkur yurishiga imkon yaratgan Xorazmda sodir bo'lgan voqealar tahlili shuni ko'rsatadiki, u yerda siyosiy parokandalik yuz bergan va vaziyat tahlikali tus olgan. Afsuski, biz ko'rib chiqqan manbalarda Amir Qazag'anning Hirot yurishi vaqtida Xorazmdagi siyosiy vaziyat haqida ma'lumot berilmagan. Faqat muarrix Fasih Xavofiy amir Abdullohning Xorazm yurishi hijriy 754 (melodiy 1353-1354 yillari) yili yuz berganligini va g'alaba bilan yakunlanganligini ta'kidlaydi[14: B. 100]. Aynan shu yili Amir Qazag'anning Hirot ustiga yana bir bor yurish qilganligini taxmin qilish mumkin. Chunki 1351-1352 yillarda Amir Qazag'an hukmronligini Hirot maligi Mu'izziddin tomonidan tan olinishi Xurosonning ko'plab yirik siyosiy kuchlari tomonidan yaxshi kutib olinmagan. Ular Malik Mu'izziddin o'rniga Malik Boqirni taxtga qo'yishga erishganlar ham. Amir Qazag'an bu voqeadan xabar topgach, Malik Mu'izziddinni o'z huzuriga chaqirib, uni yana Hirot taxtiga chiqarishga va'da bergan. Movarounnahrda kelgan Hirotning sobiq hokimini asir olishni taklif qilgan o'z amirlari maslahatiga ko'nimgan Qazag'an, o'z yurtiga qaytishiga ruxsat bergan[14: B. 97-99; 15 B. 15-18]. Hirotga qaytib kelgan Malik Mu'izziddin Boqirni asir olib, taxtni qayta egallab olishga erishgan. Garchi manbalarda amir Qazag'an Malik Mu'izziddinga yordam kuch berganligi xususida ma'lumot berilmagan bo'lsa ham ma'lum miqdorda qo'shin jo'natganligini yoki lashkar bilan Hirot mulki chegaralariga joylashganligini taxmin qilish mumkin. Malik Mu'izziddinning qiyinchiliksiz Hirot taxtini qaytarib olishi shundan dalolat beradi. Qolaversa, Sharofuddin Ali Yazdiy ham Malik Mu'izziddin voqeasi vaqtida amir Abdullohning Xorazm yurishi bo'lganligini quyidagicha ta'kidlagan edi: "Va yana bir voqea ul mahaldakim, voqi' bo'lib turur, bu erdikim, Qazaganbekning o'g'li Abdulloh mirzo Samarqanddin cherik tartib etib Xorazm sori bordi va ul viloyatni oldi [15: B.18]". Faqat Sharofuddin Ali Yazdiy ushbu voqea 1352 yili yuz berganligini qayd etgan. Ushbu voqea sanasini yanada aniqlashtirish uchun Xorazm tarixiga oid manbalarni chuqur o'rganish va uni Natanziy bergan voqealar bayoni bilan qiyosiy tahlil etish lozim. Kelajakda olib boriladigan tadqiqotlar orqali bu masalaga aniqlik kiritiladi, deb o'ylaymiz.

Yuqorida ham ta'kidlaganimizdek, Amir Abdullohning Xorazm yurishi tarixi Muiniddin Natanziy tomonidan biroz kengroq bayon etilgan. Mamlakatning janubiy chegaralaridagi vaziyat bilan band bo'lgan amir Qazag'an o'g'li, Samarqand hokimi Abdullohga davlatning boshqa sarhadlaridan boxabar bo'lib turishni topshirgan. Bu vazifani bajarish uchun yetarli miqdorda qo'shin ham ajratilib, ushbu lashkar Samarqandda to'plangan. Sharofuddin Ali Yazdiy ham Xorazmga yurish qilgan qo'shinga aynan Samarqandda tartib berilganligini bejiz qayd etmagan[15: B.18]. Samarqandda to'plashgan lashkar amirlari Xuroson sarhadlarida turgan Movarounnahr lashkarining beklariga havas qilganliklari tabiiy. Chunki ular Xuroson yurishidan katta o'ljalar bilan qaytishi kutilardi. Ayni shu vaziyatda Xorazmda boshlangan parokandalik Samarqandda turgan lashkar amirlariga umid chirog'ini yoqqan va ular amir Abdullohni tezlik bilan Xorazm ustiga bostirib borishga da'vat etganlar. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Natanziy mazkur yurish aynan "amirlar ig'vosi" bilan yuz berganligini alohida qayd etgan edi. Amir Abdulloh qo'shini Xorazmga yetib borgan vaqtida vohada chindan chuqur siyosiy parokandalik yuz berganligi, bu vaziyatda hududning yirik siyosiy kuchlari o'zlarini chetga olganliklarini ko'rishimiz mumkin. Amir Abdulloh qo'shini shaharga yetib borib, uning atrofiga chodirlarni o'rnatib joylashgach, qamal ishlarini boshlab yuborganlar. Mazkur holatda shahar savdogarlari tashabbusni qo'lga olib Movarounnahr lashkari bilan muzokara olib borgan va qo'shinning shaharga bostirib kirishini oldini olishga intilgan. "Qubbat ul-islom Xorazm, — deb yozadi Natanziy, — hokimsiz qolgan, jamiki xosu om lashkar dahshatidan o'zini yo'qotgan bo'lib, uni qay tarzda va qay bir tadbir bilan daf etishni bilishmasdi. Shu hol asnosi va halokat jari yoqasida turilgan bir paytda savdogarlar boshlig'i Xoja Ixtiyoriddin Hasan Sovarj — Xudo unga rahmat qilsin amirzoda Abdullohning istiqboliga chiqdi va ostona o'pish davlatiga musharraf bo'lgach, xorazmliklarning ojiz va notavonliklari haqida unga arz qildi" [10: B.49].

Muiniddin Natanziy qal'ani zabt etish borasida olib borilgan jang harakatlari xususida ma'lumot bermagan. Bu ham shahar himoyasi uchun xorazmliklar tomonidan keskin qarshilik bo'lmaganligidan dalolat beradi. Qolaversa, yirik siyosiy kuchlar, ya'ni amirlar va beklar shaharni o'z holiga tashlab ketganligi ham bunga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

TARIX

Shaharni hujum bilan egallash asosan o'tliq lashkardan iborat bo'lgan Movarounnahr qo'shini uchun katta qurbonlar olib kelishi muqarrar bo'lgan sharoitda sulh eng yaxshi taklif edi. Aslida bu yerga o'lja uchun kelgan amirlar uchun ham eng maqbul holat o'zaro kelishuv bo'lib, tovon puli sifatida olinadigan sovg'alar ularni to'la qoniqtirardi. Shuning uchun ham tez orada olib borilgan muzokaralar natijasida sulhga erishildi: "Nihoyat, shunga qaror qilindiki, (xorazmliklar) xazinaga na'l'baho (tovon puli, shu davr manbalarida "taqa puli" nomi bilan ham atalgan, kontributsiya) to'laydigan bo'lishdi. Farmonga binoan Hasan Sovarj amirzoda Abdulloh devoniga ikki yuz tuman xorazmiy topshirdi. Shu orada yana turli xil tuhfa-yu sovg'alarni ham peshkash sifatida yetkazdi. U chandon munosib xizmatlar va shoyista qulluqlar zohir etdiki, amirzoda Abdulloh shu kun, shu soatning o'zida Xorazm tashqarisidan ko'chish va qaytish nog'orasini chalib, o'zining sharif maskaniga qaytib ketdi[10: B.49]."

Shu o'rinda amir Abdullohning mazkur yurishi Xorazmning qaysi shahriga amalga oshirilganligi xususida ba'zi mulohazalarni bildirib o'tish joiz. Manbalarda Movarounnahr lashkari tomonidan qamal qilingan shahar haqida ma'lumotlar mavjud emas. Tarixiy manbalarda Urganch shahri ko'p hollarda voha nomi bilan atalib, Xorazm deya qayd etilganligini inobatga olish lozim. Xorazmning Xiva va Kot shaharlari bu vaqtda Chig'atoy ulusi tarkibida bo'lib, ular faqat 1364-1365 yillarda Xorazm hukmdori Husayn So'fi tomonidan egallab olingan edi[7: B.164]. Amir Abdullohning bu vaqtda o'z tasarrufida bo'lgan Xiva va Kot shaharlariga yurish qilmaganligi tabiiy. Shaharning iqtisodiy imkoniyatlari ham uning yirik markaziy shahar ekanligini ko'rsatadi. Shahar aholisi tomonidan ikki yuz tuman xorazmiy mablag' tovon sifatida to'langanligi, undan tashqari turli xil sovg'alar peshkash qilinganligi ham shahar yirik iqtisodiy markaz bo'lganligini dalillaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqsak, bu shahar Urganch ekanligi ma'lum bo'ladi.

Ushbu yurish tarixini o'rganish amir Abdullohning davlatchilik borasidagi qarashlarini xususida ham fikr yuritish imkonini beradi. Bu borada Natanziyning quyidagi fikrlari qiziqarli: "O'sha yili bu lashkarga hamroh bo'lgan ba'zi ko'pni ko'rgan qariyalar shunday naql qilishadi: (yo'lga) o'tlanish va orqaga qaytish paytida yo'l ustida joylashgan viloyatlar aholisi begona lashkar o'tganidan qat'iyan va aslo zarracha ham ozor ko'rmagan va biron jonzotga hech bir jihatdan zarar yetmagan" [10: B.49]. Amir Abdulloh markazlashgan davlatni mustahkamlash yo'lida dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoning taraqqiy etishidan manfaatdor edi. Aynan ular to'lagan soliqlar orqali xazina to'lib, hukmdorning o'z qabilaviy lashkarlariga tayanuvchi amir va beklar oldida nufuzi mustahkalanardi. Lashkarni asosiy qismini tashkil etgan ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi qabilalarning yetakchilari uchun esa shahar va qishloqlar aholisi talon-taroj obyekti sifatida ko'rishardi. Ular imkon bo'lishi bilan o'troq xalqni talashni, ulardan turli to'lov hamda jarimalar undirishni o'z oldilariga maqsad qilib olishgandi. Ularning nazarida harbiy yurishlar chog'ida olib boriladigan talon-taroj ishlari qo'shinni ta'minlashning asosiy vositasi hisoblanardi. Natanziyning yuqorida keltirilgan ma'lumoti amir Abdullohning bu boradagi pozitsiyasi amir va beklarning manfaatlariga qarshi ekanligini yaqqol ko'rsatib bergan. Ushbu yurish chog'ida talon-tarojga yo'l qo'yilmaganligi birinchidan, amir Abdullohning amir va beklar oldidagi nufuzini, uning amru farmonlari to'liq ijro etilganligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, muvaffaqiyatli yurish natijasida qo'lga kiritilgan katta tovon puli amiru beklar va lashkarning talon-taroj bilan shug'ullanishiga hojat qoldirmagan.

Amir Abdulloh ishlab chiqaruvchi kuchlar manfaatlarini qo'llab-quvvatlash o'z otasi Qazag'an bilan bir fikrda bo'lganligi ham e'tibor qaratish lozim. Movarounnahrda yangi mustaqil davlatga asos solish yo'lida kurashayotgan amir Qazag'an va uning vorisi Abdulloh o'troq aholi manfaatlarini himoya qilishga jiddiy e'tibor berganliklari ularning mo'g'ul xoni Kebekxon tomonidan olib borilgan markaziy hokimiyatni mustahkamlash siyosatini davom ettirishga uringanliklarini ko'rsatadi. Bu borada Muiniddin Natanziy qalamiga mansub ushbu ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega: "(Qazag'on) u davrda hayot tarzi shundoq bo'lishini talab qilar va bundan lazzatlanardi: raiyat o'ziga tinch bo'lib, lashkar ko'chmanchilik qilib (o'zini ta'minlash), amirlar o'z qo'l ostidagilarning ahvolini yaxshilash, sulton qurilish ishlari va dehqonchilikni rag'batlantirish, ulamo diniy ilmlardan dars berib, mashoyixlar yaqin (ilmi) qoidalarini tahqiq qilish, imom va qozilar payg'ambar shariatiga rivoj berish, (xullas) har odam o'z holiga yarasha (biron yumushga) mashg'ul va har toifa o'z ishida farmonbardor va tirishqoq bo'lib, xalq nihoyatda osuda hayot kechirardi" [10: B.50]. Muarrix amir

Qazag'an davlatida har bir tabaqaga yuklatilgan vazifa xususida juda muhim fikrlarni qoldirgan bo'lib, bu ma'lumotlar davrning ijtimoiy holatini anglash imkonini beradi.

Garchi Sharofuddin Ali Yazdiy [15: B. 18] va Fasih Xavofiy [14: B. 100] o'z asarlarida amir Abdullohning Xorazm yurishiga uning otasi amir Qazag'an qanday munosabatda bo'lganligi xususida so'z yuritmasalar-da, Natanziy mazkur yurish Movarounnahr hukmdori tomonidan ma'qullanmaganligi qayd etgan. "Ushbu barcha ehtiyotkorliklarga qaramay, — deb yozadi muarrix, — amir Qazagon amirzoda Abdullohdan ranjidi va unga hamroh bo'lib borgan amirlarga qattiq dashnom berdi: "Nima sababdan musulmonlar mol-mulkiga — qasd qildingiz? Bir iqlimdan shundoq sonsiz lashkarni olib o'tdingiz va sizning o'tishingizdan fuqaroga, o'jizlar va bechorahol odamlarga turli ozorlar yetdi" [10: B. 50]. Avval ham ta'kidlab o'tildiki, amir Qazag'an lashkarning talon-tarojidan ishlab chiqaruvchi kuchlarni ehtiyot qilishga katta e'tibor qaratgan va ularga zarar yetkazilishi natijasida davlat xazinasini daromadlarining qisqarishini oldini olishga ahamiyat bergan. Otasining siyosatini qo'llab quvvatlagan va bundan o'zi ham to'la manfaatdor bo'lgan amir Abdulloh ham yurish davomida ayni masalaga jiddiy e'tibor qaratganligini yuqorida ko'rdik. Bizningcha, birinchi navbatda amir Abdullohning davlat hukmdoridan beruxsat yurish qilganligi uni ranjitgan. Qolaversa, qo'lga kiritilgan yirik miqdordagi mablag' va zafarli yurish amir-u beklar orasida valiahdning nufuzini oshirib yuborganligi ham hukmdorni hushyor torttirgan bo'lishi mumkin. Lekin amir Qazag'an o'z o'g'liga nisbatan qandaydir jiddiy chora ko'rganligi ma'lum emas. Amir Abdulloh otasining vafotiga qadar Samarqand hokimi sifatida faoliyatini davom ettirgan va valiahd maqomini saqlab qolgan.

XULOSA

Amir Abdullohning Xorazm yurishi Movarounnahr va uning atrofidagi hududlarda kechayotgan siyosiy-harbiy jarayonlarning bir qismi bo'lib, ichki va tashqi kuchlarning ta'siri natijasida yuz bergan. Xorazmda yuz bergan siyosiy porakandalik, Xurosonda kechayotgan voqealarga ta'sir ko'rsatishga intilayotganligi amir Qazag'anning mamlakatning janubiy sarhadlarida band ekanligi, Movarounnahrdagi mahalliy amir-u beklarning qulay fursatdan foydalanib zafarli yurish oqibatida katta boyliklarni qo'lga kiritishga intilishlari mazkur harbiy yurishning yuzaga kelishiga olib kelgan omillar edi. Harbiy yurish davomida bo'lib o'tgan voqealarning tahlili amir Qazag'an va uning katta o'g'li hamda valiahdi amir Abdulloh markaziy hokimiyatni mustahkamlash, xazina daromadlarini oshirish maqsadida mahalliy ishlab chiqaruvchi kuchlar manfaatlarini himoya qilishga katta e'tibor qaratganliklari muhim ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alan Hayrunnisa. Bozkirdan Cennet Bahçesine Timurlular (1360-1506) İstanbul, Ötüken Yayınları, 2016. – 340 s.
2. Aka, Ismail Timur ve Devleti, Ankara, Turk Tarix Kurumu basi evi, 1991. –172 s
3. Bregel, Yuri. An Historical Atlas of Central Asia. Brill. Leiden--Boston:, 2003. – 124 p
4. Manz Beatrice Forbes. The rise and rule of Tamerlane. – Cambridge University Press, 1989. – 227 p. 104. Manz Beatrice Forbes. The Ulus Chagatay before and after Temurs rise to power // Central Asiatic Journal. 1983. № XXVII. – P. 79-100.
5. Amir Temur ja'xon tarixida / Mas'ul mu'harriir X. Karomatov. T'uldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri – T.: Sharq, 2001. – 304 b.
6. A'xmedov B. Amir Temurni ed etib – T.: U'zbekiston, 1996. – 368 b
7. A'xmedov B. Tarixdan saboqlar – T.: U'qituvchi, 1993. – 432 b.
8. Бартольд В.В. Улугбек и его время. // Сочинения, Т.2, Ч.2. – М.: Наука, 1964. – С. 25-197.
9. История Узбекистана. Эпоха Амира Темура и Темуридов. / Отв. Редакторы: Э.В.Ртвеладзе, Д.А.Алимова. – Т.: Фан, 2017. – 568 б
10. Муиниддин Натанзий . Мунтахаб ут-таворихи Муиний. / Форс тилидан таржима, с'уз боши ва изохлар муаллифи - Фулом Каримий - Т.: U'zbekiston. 2011. – 264 б
11. Мухаммаджонов А. Темурилар салтанати (Тарихий очерк) – Т.: Қомуслар Бош тахририяти. 1994. – 158 б.
12. Низомиддин Шомий. Зафарнома /Форс тилидан ўғирувчи – Ю.Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А.Уринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Х.Кароматов (жўғрофий номлар изоҳи – О.Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл» («Илова»)ни форсийдан ўғирувчи ва изоҳларини тузувчи – О.Бўриев -Т.: U'zbekiston, 1996
13. Темурилар ва Улуғбек даври тарихи / Бош муҳаррир академик А.Асқаров – Т.: Қомуслар Бош тахририяти, 1996. – 265 б.
14. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / Пер. предис. примеч. и указатели Д. Ю. Юсуповой. – Т.: Фан, 1980. – 346 с.
15. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /С'уз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Х.Бобобеков, -Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.
16. Якубовский А.Ю. Темури: Опыт краткой политической характеристики. // Вопросы истории. – М., 1946. №8-9. С.42 – 74.